

ISSN: 2181-4562

DOI Journal 10.56017/2181-4562



IMFAKTOR
PAGES

JOCAA

МАДАНИЈАТ ВА САЊАТ

Journal of Culture and Art

Volume I, Issue 2

April | 2023

КУЛТУРА И ИСКУССТВО



ISSN: 2181-4562
DOI Journal 10.56017/2181-4562

МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 2-СОҢ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

ТОМ-I, НОМЕР-2

JOURNAL OF CULTURE AND ART

VOLUME-I, ISSUE-2

ТОШКЕНТ – 2023

МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВА | JOURNAL OF CULTURE AND ART

№ 2 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4562-2023-2>

БОШ МУҲАРРИР:

Халикулова Гўзал Эркиновна

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти профессори в.б., Санъатшунослик фанлари номзоди

МАСЪУЛ МУҲАРРИР:

Мелиқўзиёв Иқбол
Мамасодиқович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти кафедра мудир, профессор в.б., Санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ:

Касимов Нозим Козимович

Маданият ва туризм вазирлиги “Таълим ва илм-фанни ривожлантириш бошқармаси” бошлиғи, профессор Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти Нукус филиали “Санъатшунослик” факультети декани, Тарих фанлари номзоди, профессор

Ходжаметова Гулчира
Илишевна

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти кафедра мудир, доцент, Санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Абдувоҳидов Фахриддин
Мелигалиевич

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти “Саҳна нутқи” кафедраси доценти

Умаров Мамур
Боташикович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти “Санъатшунослик ва маданиятшунослик” кафедраси профессори в.б., фалсафа фанлари номзоди

Худоев Ғани Муҳаммадович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти кафедра мудир, Санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Бердиханова Шахида
Нурлыбаевна

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати институти “Ўзбек мақоми тарихи ва назарияси” кафедраси мудир, санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Дўсанов Раҳимжон
Раимқулович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти, “катта ўқитувчи”, мустақил тадқиқотчи

Суннатиллаев Асатилло
Суннатович

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати институти “Илмий тадқиқотлар, инновациялар ва илмий-педагогик кадрлар тайёрлаш” бўлими бошлиғи, мустақил изланувчи (PhD)

Мазкур фанлараро илмий-амалий журнал Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги томонидан 2023 йил 24 февраль куни № 065356-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Саҳифаловчи/Page Maker/Верстка: Абдураҳмон Хасанов

Таҳририят манзили: <https://imfaktor.uz>, 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: tahririyat@imfaktor.uz

© IMFAKTOR Pages, 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

МАДАНИЯТ ВА САЊЪАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

BAKAROV Normurod Mirzayevich
Termiz ixtisoslashtirilgan san'at maktabi
Xalq cholg'ulari kafedrasini o'qituvchisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7845620>

SURXONDARYO BASTAKORLARI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Surxondaryoda bastakorlar faoliyati hamda bastakorlik bo'limining tashkil etilishi to'g'risida so'z boradi.

Kalit so'zlar: bastakor, kompozitor, O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi, Surxondaryo viloyat bo'limi.

КОМПОЗИТОРЫ СУРХАНДАРЬИ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассказывается о деятельности композиторов и организации композиторского в Сурхандарьинской области.

Ключевые слова: Бастакор, Композитор, Союз композиторов и бастакоров Узбекистана, Сурхандарьинское областное отделение.

COMPOSERS OF SURKHONDARYO

ANNOTATION

This article talks about the activities of composers and the organization of the composition department in Surkhandarya.

Keywords: Bastakor, Composer, Union of Composers and Bastakors of Uzbekistan, Surkhandarya Regional Branch.

Xalqimizning ma'naviy saviyasini oshirish, yosh avlodni yuksak insoniy g'oyalar, ona Vatanga mehr va sadoqat ruhida tarbiyalash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida kamol toptirishda musiqa san'atining o'рни va ahamiyati beqiyosdir. Boy musiqa merosimizni asrab-avaylash va rivojlantirish, shu yo'nalishda faoliyat ko'rsatayotgan ijodiy tashkilot va jamoalar, kompozitor va bastakorlar, xonanda va sozandalar, yosh ijrochilar faoliyatini muvofiqlashtirish, ularning iste'dod va mahoratini ro'yobga chiqarish, zarur moddiy va ma'naviy yordam berish, soha vakillari o'rtasida samarali ijodiy muhit tashkil etish bo'yicha ko'pgina muhim vazifalar bugungi kunda o'z yechimini topmoqda [1, B.1].

Ushbu maqola O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi Surxondaryo viloyat bo'limi tashkil etilgan 2017-yildan to hozirgi kungacha bo'limda amalga oshirilgan ishlarni o'zida jamlagan, hamda Surxondaryo viloyatida yashab ijod etgan va ijod qilib kelayotgan kompozitor va bastakorlar ijodini xalqimizga, kelajak avlodga yetkazish maqsadida tayyorlandi.

O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi (dastlabki nomi «O'zbekiston kompozitorlar soyuzi») O'zbekiston Xalq Komissarlari kengashining 1938-yil №203-p qaroriga binoan tashkil topgan. Respublikada faoliyat ko'rsatayotgan kompozitorlar va musiqashunoslarni g'oyaviy va ijodiy birlashtirish maqsadida O'zbekiston xalq artisti, atoqli kompozitor va dirijyor Tolibjon Sodiqovga uyushmani tuzish uchun rasman vakolat berildi.

Respublika hukumatining Xalq Komissarlari 1940-yil 21-fevral №258-qaroriga binoan O'zbekiston bastakorlar uyushmasi I-syezdini 1941-yil oktyabr oyida o'tkazish belgilandi, hamda hay'at a'zolari tasdiqlandi: Tolibjon Sodiqov – rais, Muxtor Ashrafiy – rais o'rinbosari, Karim Abdullayev – mas'ul kotib, To'xtasin Jalilov, Yunus Rajabiy, Nikolay Mironov, Aleksey Kozlovskiy, Yelena Romanovskaya, Mutal Burxonov, Viktor Uspenskiy, Sharif Ramazonov, Imomjon Ikromov, Matyusup Xarratovlar – hay'at a'zolari. K.Abdullayev o'z arizasiga ko'ra mas'ul kotib vazifasidan ozod etilgach, o'rniga musiqashunos Yelena Romanovskaya saylandi.

Shuni aytib o'tish joizki, 1945-1959-yillarda O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi safiga konservatoriyaning bitirgan 27 nafar yosh, 4 kompozitorlardan quyidagilar qabul qilindi: Ibrohim Hamroev, Fofur Qodirov, Gabduraim Sobitov, Pak-Yen Din, Ikrom Akbarov, G.Zubatov, Vladimir Knyazev, Xayri Izomov, Doni Zokirov, Sobir Boboyev, Dadaali Soatqulov, S.Abramova, Aleksandr Berlin, Hamid Rahimov, Sovet Varelas, Abdurahim Muhamedov, V.Zudov, Fattoh Nazarov, Olimjon Halimov, Yu.Nikolaev, Albert Malaxov, Feliks Yanov-Yanovskiy. Konservatoriyaning bitirgan 54 nafar yosh musiqashunoslardan Irina Dulgarova, Yuriy Kon, Karima Olimboeva, Fayzulla Karomatov, Maksim Kovbas, A.Asinovskaya, Tamara Solomonova, Tojigul Adambaeva, Tamara Golovyans, Tovur Jumaev, Mahmud Ahmedov va Natalya Yanov-Yanovskayalar qabul qilindi.

1967-yilning sentyabr oyida O'zbekiston bastakorlar uyushmasining Qoraqalpog'iston bo'limi ochildi. Bunga bag'ishlangan ikkita konsertda Qoraqalpog'iston kompozitorlarining turli janrlardagi asarlari va ikkita musiqali drama namoyish etildi.

O'zbekiston Kompozitorlar uyushmasining hay'at raisi A.X.Jabborov ma'ruza qildi. Mazkur uyushma bo'limining raisi lavozimiga Olimjon Halimov, mas'ul kotiblikka Tojigul Adambaevalar saylandilar.

O'zbekiston Bastakorlar uyushmasining tashkil topganiga 50 yil to'lishi munosabati bilan 1988-yilning 27-noyabridan 8-dekabrigacha yubiley Plenumi bo'lib o'tdi. Plenum konsertlari va ijodiy uchrashuvlar haqiqiy musiqa bayramiga aylandi. Plenum ishini boshlash arafasida 24-26-noyabr kunlari dunyodan ko'z yumgan kompozitorlar va musiqashunoslarga bag'ishlangan «Xotira kecha»lari o'tkazildi va qabrlari ziyorat qilindi. Marhum kompozitorlarning musiqiy asarlari uchta konsert dasturida jarangladi. Nurilla Zokirovning «Gamlet», Sulaymon Yudakovning «Maysaraning ishi» operalari, Rustam Abdullayevning «Quyoshga ta'zim» balet-oratoriyasi, Muxtor Ashrafiyning «Sevgi tumori» baleti, Ulug'bek Musayevniig «To'maris» baleti, Samarqand opera va balet teatrida Dilbar Qodirovaning «Sayyora» baleti, Mustafu Bafoyevning «Prometey» musiqali dramasi, Enmark Solixovning «Xo'ja Nasriddin» operettasi tomoshabinlar e'tiboriga havola etildi.

Shuni aytib o'tish joizki, XX asrning 60-80-yillarida O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi tashabbusi bilan Toshkentda har yili O'rta Osiyo va Qozog'iston kompozitorlarining asarlaridan «Simfonik musiqa festivali» o'tkazildi. Mazkur festivalni o'tkazishda O'zbekiston xalq artisti, professor dirijyor Zohid Haqnazarov rahbarligidagi simfonik orkestrning faoliyati muhim rol o'ynadi.

1991-yilning 1-sentyabri O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi bayrami deb e'lon qilindi. Mustaqil davlatning qurilishi respublikada jahon sivilizatsiyasi tomonidan erishilgan tajriba va siyosiy-huquqiy ta'limotlar, xalqimizning boy tarixiy, madaniy merosini mukammal tiklashga, o'rganishga katta imkoniyatlar vujudga keldi.

O'zbekistonda keskin ravishda siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy-madaniy hamda ma'naviy o'zgarishlar yuz berdi. Respublikamizdagi bunday ijobiy o'zgarishlar xalqimizni yangi-yangi ijodiy zafarlarga chorlamoqda.

O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi a'zolarining 1990-yil 29-oktyabrda o'tkazilgan umumiy majlisida tashkilotning yangi nizomi ishlab chiqilib, 1991-yilning 3-yanvarida tasdiqlandi va o'sha kundan kuchga kirdi. Mazkur Nizomda uyushma maqsadi va vazifalari aniqlandi.

Uyushmaning asosiy maqsadi: «O'zbekiston milliy musiqasini keng ko'lamda boyitish va yuksaltirish. O'zbekistonda yashaydigan boshqa xalqlar musiqasi kamol topishiga muntazam yordam berish, musiqiy tarbiyalashga butun kuch-qudratini safarbar etish, O'zbekiston kompozitor va musiqashunoslarini respublika va xorijiy davlatlarda targ'ibot qilish» dan iboratligi belgilab olindi.

O'zbekiston Bastakorlar uyushmasining a'zolari Vatanimizning musiqiy madaniyatini rivojlantirish jarayonida faol ijod qilmoqdalar. Mustaqillikning o'tgan davrida kompozitorlar A.Navoiy nomidagi opera va balet teatrini, Muqimiy nomidagi musiqiy teatrni va viloyatdagi barcha teatrlarni, milliy simfonik orkestrni, xor jamoalarini, o'zbek xalq cholg'u asboblari orkestrlarini, estrada simfonik orkestrini, kamer simfonik orkestrini, drama teatrlarni, bolalar xor jamoalarini, damli cholg'ular orkestrlari va boshqa ijrochi jamoalarning repertuarlarini yangi-yangi musiqiy asarlar, spektakllar bilan doimiy ravishda boyitib kelmoqdalar.

Shu bilan birga uyushma a'zolari respublikamizda har yili o'tkazilayotgan «O'zbekiston – Vatanim manim», “Yagonasan, muqaddas Vatan” qo'shiq tanlovlarida, har ikki yilda Samarqand shahrida o'tkazilayotgan «Sharq taronalari» xalqaro musiqa festivallarida faol qatnashmoqdalar. Zamonaviy simfonik musiqa san'atini rivojlantirish va targ'ib qilish niyatida O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi, O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi hamkorlikda 1998, 2000, 2002, 2005-yillarda Xalqaro simfonik musiqa festivalini, «Ilxom» yoshlar teatri bilan hamkorlikda 1996-2006-yillar mobaynida Toshkentda Xalqaro zamonaviy kamer musiqa festivallarini, 2003, 2008, 2013-yillarda «Davr sadolari-I, II, III» musiqa festivallarini, 2002, 2005, 2007, 2009, 2011-yillarda Nazira Ahmedova nomidagi Respublika va Xalqaro xonandalar tanlovlarini o'tkazdi. Bunday nufuzli musiqa festivallari hamda tanlovlarida kompozitor va musiqashunoslar faol ishtirok etdilar.

2014-yilning 11-sentyabrda O'zbekiston Bastakorlar uyushmasining navbatdagi, XI qurultoyi bo'lib o'tdi. Qurultoyda tashkiliy masalalar ko'rib chiqildi. Uyushmaning Faollar kengashi a'zolari saylandi. O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi raisi lavozimiga kompozitor Rustam Abdullayev, o'rinbosari etib kompozitor Habibulla Rahimov, taftish hay'ati raisi etib musiqashunos Rustambek Abdullayev qayta saylandilar. Uyushma Nizomi Ustav so'ziga almashtirilib, unga ayrim o'zgartirishlar kiritildi.

2017-yil 15-avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3212-son qarori qabul qilindi. Ushbu qaror “O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida” bo'lib, qarorda mamlakatimizning madaniy va ijtimoiy hayotida faol ishtirok etish, davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari, ijodiy uyushmalar va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda musiqa san'ati sohasida ijod qilayotgan barcha ijodkorlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida respublikamizning barcha hududlarida O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasining hududiy bo'limlarini tashkil etish to'g'risida so'z boradi. (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori “O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida” 2017-yil 15-avgust PQ-3212-sonli qarori.)

Ushbu qaror natijasida 2017-yilning sentyabr oyidan e'tiboran Surxondaryo viloyatida O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi Surxondaryo viloyati bo'limi o'z faoliyatini boshlaganiga ham besh yildan oshib bormoqda.

O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi Surxondaryo viloyat bo'limi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-avgustdagi PQ-3212-son qaroriga asosan 2017-yilning sentyabr oyidan tashkil etilib o'z faoliyatini boshladi.

Bo‘lim ish faoliyatini boshlagan ilk davrda unda Shodmon Qosimov rahbar, Normurod Bakarov mutaxassis, Farhod Nazarov yordamchi mutaxassis bo‘lib faoliyat ko‘rsatishdi. 2019-yilda bo‘limga Hayitmurod Primov rahbar, Farhod Nazarov mutaxassis, Sherzod Xolmatov yordamchi mutaxassis bo‘lib faoliyat ko‘rsatishdi. 2021-yildan boshlab ushbu bo‘limga Baxrutdin Ishmurotov rahbar, Normurod Bakarov mutaxassis bo‘lib faoliyat ko‘rsatib kelishmoqda.

O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi Surxondaryo viloyat bo‘limi ushbu yillar davomida ko‘plab ijodiy ishlarni amalga oshirdi. Surxondaryo viloyatida yashab ijod qilayotgan hamda e‘tibordan chetda qolgan kompozitor hamda bastakorlar bo‘limga a‘zo qilindi. O‘tgan davr mobaynida har oy davomida mazkur ijodkor bastakorlarning hayoti va ijodiga bag‘ishlangan ijodiy kecha va seminarlarni muntazam ravishda tashkil qilib, bastakorlar hamda kompozitorlar tomonidan yaratilgan ijod namunalarini xalqimizga taqdim qilib, ularni ijodini targ‘ib qilib kelmoqda.

Ushbu ishlarni amalga oshirishda ayniqsa Termiz ixtisoslashtirilgan san‘at maktabi bosh o‘qituvchisi, O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi Surxondaryo viloyat bo‘limi bosh mutaxassisi Normurod Mirzayevich Bakarovning xizmatlari tahsinga sazovordir. Uning tashabbusi va jonkuyarligi natijasida Surxondaryo viloyatida kompozitorlar va bastakorlarning o‘ziga xos ijodiy muhiti yuzaga keldi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Surxon vohasi qadimdan ijodkorlar, baxshi-yu shoirlar yurti hisoblanadi. Bu vohada ko‘plab shoir, yozuvchilar, baxshilar, bastakorlar yetishib chiqqan. Shulardan Halimjon Shamsutdinov, Xoliq Xursandov, Abdulaziz Imomov, Shafoat Rahmatullo Termiziy, Raxmatilla Mo‘minov, Abduraim Tursunov, Komil Xidirov, Sattor Qurbonov, Muzaffar Naimov, Farhod Nazarovlarning nomlarini butun Respublikamiz san‘at ahli yaxshi biladi.

Shuni mamnuniyat bilan qayd etib o‘tish lozimki, 2017-yilning sentyabr oyidan e‘tiboran Surxondaryo viloyatida O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi Surxondaryo viloyati bo‘limi o‘z faoliyatini boshlaganidan buyon ish faoliyati davomida vohada ijod qilib kelayotgan ko‘plab ijodkorlarni o‘zida birlashtirib katta ijodiy muhitni yaratdi.

Bo‘lim tashabbusi bilan taniqli el kompozitorlari va bastakorlarining ijodiy kechalari muntazam tashki etib kelinmoqda. O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi Surxondaryo viloyati bo‘limi tomonidan bugungi kunda ro‘yxatga olingan kompozitorlar va bastakorlarni sanab o‘tamiz. Halim Shamsutdinov, Sangali Pirov, Yo‘ldosh Haydarov, Abdulaziz Imomov, Shafoat Rahmatullo Termiziy, Xushbek Xolmatov, Xoliq Xursandov, Sodiq Mamasoliyev, Orziqul Nuraliyev, Rahmatulla Mo‘minov, Abdumajid Muhammadiyev, Toshtemir Toirov, Xayrullo Nasriddinov, Muhammadi Shamsiddinov, Amrullo Narzullayev, Norqo‘chqor To‘ranazarov, Botir Jilkibayev, Abduraim Tursunov, Komil Xidirov, Umedullo Turobov, Sattor Qurbonov, Habibullo G‘ofurov, Muzaffar Naimov, Gulnora Jumayeva, O‘rol Eshdavlatov, Erkin Xo‘jakeldiyev, Safar Ziyoyulov, Orif Xakimov, Ulug‘bek Beknazarov, Xolmurod Nazarov, Xurshid Tursunov, Farhod Nazarov, Ulug‘bek Xurramov, Yekaterina Bakumenkolar shular jumlasidandir.

Kelgusida ushbu kompozitorlar va bastakorlarning ijodiy ishlariga ulkan rivoj va zafarlar tilab qolamiz.

IQTIBOSLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori “O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 2017-yil 15-avgust PQ-3212-sonli qarori.
2. A.Jabborov “O‘zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari” Toshkent 2015 yil.

ISSN: 2181-4562
DOI Journal 10.56017/2181-4562

МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 2-СОН

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

ТОМ-I, НОМЕР-2

JOURNAL OF CULTURE AND ART

VOLUME-I, ISSUE-2

2023 йил 31 март куни чоп этилди.

«Маданият ва санъат» электрон журнали 2023 йил 24 февраль куни № 065356-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz